



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-iyun oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(67) 236-70-00*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 306,9 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 97,6 mln. AQSH dollariga yoki 24,1 % ga kamaygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 306,9 -24,1 %

(2023- y.: 404,5)



Saldo

2024- y.: - 52,5 (2023 y.: - 52,4)



Ekspart

2024- y.: 127,2 -27,7 %

(2023- y.: 176,1)



Tovarlar: 125,6



Xizmatlar: 1,6



Import

2024- y.: 179,7 -32,3 %

(2023- y.: 221,3)



Tovarlar: 179,7



Xizmatlar: -

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 127,2 mln. AQSH dollariga (27,7 % ga kamaydi) va import hajmi 179,7 mln. AQSH dollariga (21,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 52,5 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 51,3</p> <p>Eksport: 29,8 Import: 21,5</p> <p> 16,7 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 79,4</p> <p>Eksport: 19,1 Import: 60,3</p> <p> 25,9 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 48,7</p> <p>Eksport: 46,1 Import: 2,6</p> <p> 16,7 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 78,9</p> <p>Eksport: 12,3 Import: 66,6</p> <p> 25,7 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 8,7</p> <p>Eksport: 4,0 Import: 4,7</p> <p> 2,8 %</p>
<p>Ukraina</p> <p>TSA – 2,8</p> <p>Eksport: 0,7 Import: 2,1</p> <p> 0,9 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 6,7</p> <p>Eksport: 5,5 Import: 1,2</p> <p> 2,2 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 4,6</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 4,6</p> <p> 1,5 %</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 2,6</p> <p>Eksport: 2,4 Import: 0,2</p> <p> 0,8 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 3,0</p> <p>Eksport: 1,6 Import: 1,4</p> <p> 1,0 %</p>

Sirdaryo viloyati jahonning 46 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (16,7 %), XXRda (25,9 %), Afg‘onistonda (16,7 %), Qozog‘istonda (25,7 %), Turkiyada (2,8 %) va Hindiston (1,5 %) qayd etilgan.



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	61,9	69,0	51,3
 <i>Eksport</i>	33,0	30,8	29,8
<i>Import</i>	28,9	38,1	21,5
XXR	77,8	73,9	79,4
 <i>Eksport</i>	32,4	27,7	19,1
<i>Import</i>	45,4	46,2	60,3
Germaniya	5,5	2,8	2,8
 <i>Eksport</i>	0,9	0,1	0,0
<i>Import</i>	4,6	2,7	2,8
Qozog'iston	108,6	151,9	78,9
 <i>Eksport</i>	14,0	17,8	12,3
<i>Import</i>	94,6	134,0	66,6
Turkiya	22,9	21,6	8,7
 <i>Eksport</i>	13,4	12,3	4,0
<i>Import</i>	9,5	9,3	4,7
Ukraina	6,9	0,7	2,8
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,7
<i>Import</i>	6,9	0,7	2,1
Latvia	0,8	7,8	0,9
 <i>Eksport</i>	-	0,2	0,7
<i>Import</i>	0,8	7,6	0,2
Fransiya	0,9	1,6	1,3
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,9	1,6	1,3

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 Qirg'iz Respublikasi	5,5	6,0	3,0
<i>Eksport</i>	1,6	1,8	1,6
<i>Import</i>	3,9	4,2	1,4
 Afg'oniston	51,6	84,6	48,7
<i>Eksport</i>	50,5	84,5	46,1
<i>Import</i>	1,1	0,1	2,6
 Belarus	0,9	1,0	0,9
<i>Eksport</i>	0,4	0,2	0,2
<i>Import</i>	0,5	0,8	0,7
 Hindiston	1,0	1,8	4,6
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	1,0	1,8	4,6
 BAA	0,3	0,0	0,0
<i>Eksport</i>	0,3	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
 Tojikiston	9,2	6,0	2,6
<i>Eksport</i>	7,7	5,2	2,4
<i>Import</i>	1,5	0,8	0,2
 Eron	4,4	2,5	2,0
<i>Eksport</i>	1,5	1,6	1,2
<i>Import</i>	2,8	0,9	0,8
 Pokiston	0,0	0,2	6,7
<i>Eksport</i>	0,0	0,1	5,5
<i>Import</i>	0,0	0,1	1,2
 Italiya	44,1	4,6	0,7
<i>Eksport</i>	-	0,0	0,0
<i>Import</i>	44,1	4,6	0,7
 Polsha	0,7	1,2	0,2
<i>Eksport</i>	0,2	0,9	0,2
<i>Import</i>	0,5	0,3	0,0




SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH doll.)*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 37,8 % ulush bilan 116,2 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,3 % ulush bilan 0,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga kamaydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 24,1 % ga kamayib jami TSA'dagi ulushi 54,4 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, 140,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport 47,2 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 92,9 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)


Rossiya TSA – 51,3 Eksport – 29,8 Import – 21,5		Qozog'iston TSA – 78,9 Eksport – 12,3 Import – 66,6	
Qirg'iz Respublikasi TSA – 3,0 Eksport – 1,6 Import – 1,4		Belarus TSA – 0,9 Eksport – 0,2 Import – 0,7	
Tojikiston TSA – 2,6 Eksport – 2,4 Import – 0,2		Ukraina TSA – 2,8 Eksport – 0,7 Import – 2,1	



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (16,7 %), Qozog'iston (25,7 %) hamda Ukraina (0,9 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 136,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 44,4 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 91,6 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI (2024- yil yanvar-iyun)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksport hajmi 127,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 27,7 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	176,1	127,2	124,3	72,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	99,8	60,2	178,6	57,8	56,7	47,4
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	5,3 m.	11,7	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	4,1	5,6	56,9	141,4	2,3	4,4
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	0,0	0,7	3,8 m.	29,9 m.	0,0	0,6
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	8,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	5,6	2,9	87,2	60,3	3,2	2,3
Sanoat tovarlari	51,3	42,6	93,7	82,9	29,1	33,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2,7	2,6	69,6	98,9	1,5	2,0
Turli xil tayyor buyumlar	11,3	11,0	56,9	107,9	6,4	8,6
Xizmatlar	1,2	1,6	114,5	131,2	0,7	1,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,8 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (33,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (47,4 %) va turli xil tayyor buyumlar (8,6 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	42 581,4	50,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	3,3	129,5
Sabzavotlar va mevalar	17 531,8	121,2
Boshqa joyda tasniflanmagan oziq-ovqat mahsulotlari va pereparatlar	8,3	46,5
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,6	48,2
Noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	4 099,9	2,1 m.
Qog'oz massasi va makulatura	955,6	54,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	844,5	38,4
Birlamchi shakldagi bo'lmagan plastmassalar	1 402,4	65,4
O'g'itlar (272 guruxiga kiritilgan o'g'itlardan tashqari)	445,9	0,0

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	29 499,3	77,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 943,0	46,1
Cho'yan va po'lat	5,3	0,7
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	9 705,4	171,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	6,4	8,4 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 419,8	106,7
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	10 774,9	102,2
Har xil tayyor buyumlar	167,4	47,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	0,1

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlariga 47,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 37,1 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 90,4 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyun, yillar kesimida)*


Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	21 798,4	29 826,1	80,6	136,8	9	2
Turkiya	12 175,5	3 949,8	102,4	32,4	6	12
XXR	21 350,1	19 173,2	71,1	89,8	11	6
Qozog'iston	15 971,9	12 270,2	140,1	76,8	3	9
Afg'oniston	84 542,9	46 110,3	190,8	54,5	2	10
Qirg'iz Respublikasi	1 422,3	1 529,9	111,1	107,6	4	3
Tojikiston	4 751,3	2 411,5	76,7	50,7	10	11
BAA	68,8	64,8	25,7	94,1	15	5
Pokiston	2 876,6	5 482,4	110,0	190,6	5	1
Egipt	0,0	769,5	0,0	0,0	16	13
Eron	1 227,3	1 195,8	99,1	97,4	8	4
Belarus	200,6	175,3	70,7	87,4	12	8
Polsha	850,8	119,4	13,2 m.	14,0	1	14
Ozərbayjon	184,7	165,2	30,7	89,4	14	7
Turkmaniston	231,5	0,0	102,4	0,0	7	16
Buyuk Britaniya	96,1	0,0	0,0	0,0	17	17
AQSH	0,0	29,9	63,2	8,0	13	15




SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-iyun, mln.AQSH doll.)



Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



2023- y.

2024- y.

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 25,6 % bilan 32,5 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,4 % bilan 0,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-iyun oylarida 53,3 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,4 ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (17,1), Pokiston (24,5 %), Qozog'iston (37,2 %), hamda XXR (3,1 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 17,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 21,1 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 13,8 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyun, qiymati)

<p>Pomidor</p> <p>213,4 ming. AQSH dollari</p> <p>227,6 tonna</p> 	<p>Karam</p> <p>1 013,8 ming. AQSH dollari</p> <p>3 973,4 tonna</p> 	<p>Qovun-tarvuz</p> <p>723,3 ming. AQSH dollari</p> <p>2 339,0 tonna</p> 	<p>Piyoz</p> <p>4 890,9 ming. AQSH dollari</p> <p>26 612,7 tonna</p> 
<p>Uzum yangi yoki quritilgan</p> <p>371,7 ming. AQSH dollari</p> <p>267,9 tonna</p> 	<p>Grek yong'og'i</p> <p>13,7 ming. AQSH dollari</p> <p>8,9 tonna</p> 	<p>No'xat</p> <p>2 396,6 ming. AQSH dollari</p> <p>9 051,3 tonna</p> 	<p>Loviya</p> <p>3 238,6 ming. AQSH dollari</p> <p>2 007,4 tonna</p> 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-iyun)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Eron	240,1	325,6	1,9
 Pokiston	15 052,2	4 302,4	24,5
 Qozog‘iston	23 453,9	6 514,4	37,2
 XXR	794,5	552,1	3,1
 Afg‘oniston	8 721,9	2 994,9	17,1
 Latviya	1 802,6	715,5	4,1
 Tojikiston	323,2	133,8	0,8
 Boshqa davlatlar	2 882,3	1 993,1	11,3

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-iyun oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog‘istonga to‘g‘ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 37,2 %) tashkil qilmoqda.




SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 179,7 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 78,7 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (22,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (32,8 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (20,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,3 % ga kamaydi va 179,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	228,4	179,7	104,9	78,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	103,7	58,9	130,5	56,8	45,4	32,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	2,4	0,0	0,0	0,0	1,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	7,3	3,1	84,7	42,4	3,2	1,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	13,0	16,2	2,4 m.	124,2	5,7	9,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	6,5	1,5	26,9 m.	23,4	2,8	0,8
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	43,5	37,3	115,0	85,7	19,1	20,8
Sanoat tovarlari	12,0	14,0	14,0	116,2	5,3	7,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	37,6	39,6	57,0	105,2	16,5	22,0
Turli xil tayyor buyumlar	3,6	4,2	105,3	117,7	1,6	2,3
Boshqa tovarlar	1,2	2,5	0,0	2,0 m.	0,4	1,5



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	43 871,9	47,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2 448,8	72,9 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2 169,5	44,0
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	5 448,7	126,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	244,7	7,5
Probka va yog'och-taxtalar	1510,5	76,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	388,5	14,4
Ko'mir, koks va briketlar	10 144,1	98,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 514,9	23,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 035,2	122,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	18 581,4	69,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	6 795,9	2,7 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	6 257,2	71,9

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	2 343,7	94,8
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 523,4	69,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2 088,6	103,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	7 135,3	2,0 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	470,7	26,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	14 451,8	3,0 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	12 342,4	45,1
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 333,3	93,3
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 500,6	148,9
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	675,2	89,7
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	759,4	91,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	197,0	138,3

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-iyun natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 51,7 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



 2024- yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyati 44 ta davlatlar bilan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Germaniya	2 520,2	2 744,6	64,9	108,9	14	8
Rossiya	39 666,9	21 451,2	173,7	54,0	7	13
XXR	33 294,3	60 271,9	80,7	181,0	13	5
Qozog'iston	110 586,4	66 652,8	125,6	60,3	9	11
Turkiya	8 231,4	4 713,8	108,2	57,3	11	12
Koreya Respublikasi	956,4	1 741,7	13,8	182,1	18	4
Litva	7 401,9	85,2	10,6 m.	1,2	2	17
Vengriya	907,7	1 336,1	2,1 m.	147,2	5	6
Bolgariya	0,0	310,2	3,1 m.	0,0	4	19
Turkmaniston	0,0	134,4	0,0	0,0	20	20
Belarus	657,8	764,8	2,0 m.	116,3	6	7
Bangladesh	0,0	0,0	160,2	0,0	8	19
Italiya	4 451,3	609,4	10,1	13,7	19	16
Buyuk Britaniya	45,4	542,1	10,1 m.	11,9 m.	3	2
Eron	719,5	757,9	25,3	105,3	17	9
Polsha	370,9	79,0	99,6	21,2	12	15
AQSH	45,5	453,7	42,6 m.	9,9 m.	1	3
Afg'oniston	42,9	2 548,2	30,8	59,3 m.	16	1
Azərbayjon	0,0	255,2	38,3	84,0	15	10
Qirg'iz Respublikasi	3 381,3	1 437,4	110,9	42,5	10	14



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH doll.)



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 46,5 % bilan 83,6 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,2 % bilan 0,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2024- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunolari hajmi 39,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 5,1 % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 22,0 % ni tashkil qildi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyun)




2024- yil yanvar-iyun oylarida mashina va transport asbob-uskunolari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 mln. AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — 25,7 mln. AQSH dollari (64,9 %), Ukraina — 2,0 mln. AQSH dollari (5,1 %) va Hindiston – 3,8 mln. AQSH dollari (9,5 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 14,0 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,2 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 7,8 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyun)



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (7,1 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (1,5 mln. AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (2,1 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.